

MOSH KASALLIKLARINING BELGILARI

Azimbayeva Sabohatjon Ilxombek qizi

Urganch Davlat Universiteti Biologiya (Fan yo`nalishi bo`yicha) 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Maqolada dukkakdoshlar oilasiga kiruvchi mosh o`simligini yetishtirishda qanday kasalliklar bilan zararlanishi va unga qarshi chora tadbirlar to`g`risida ma`lumotlar berilgan.

Kalit so`zlar: ildiz, poya, barg, zamburug`, dukkak, kasallik, harorat.

Mosh dunyoda keng tarqalgan bo`lib, u ozuqa uchun qimmatli ekin hisoblanadi. Mosh yetishtirish katta xarajat talab qilmaydi, u qurg`oqchilikka chidamli o`simlikdir. Uning doni tarkibida 24,8% oqsil, 1% moy, 3,5-4,5% kletchatka, 4,5-5,5% kul va 62-65% uglevodlar, 50,4% karbon suvlari, 1,5% moyli kislotalar, A, B₁, B₂, B₃, B₆, B₉, C, E, K darmon dorilari, natriy, fosfor, kaliy, magniy, tniir, mis, ruh, mineral moddalari va antioksidantlar mavjud. Mosh yetishtirishda quyidagi kasalliklarni oldini olishimiz kerak:

Ildiz chirish kasalligi Thielaviopsis basicola Ferr, Pythium de Baryahum Hesse zamburug`lari orqali kelib chiqadi. Bu zamburug`lar o`simlikning sirtiga chiqmasdan chiritib yuboradi. Yetuk o`simliklar ildizlari yoki poyalari qorayib qurib qoladi. Ekilgan urug`lar chiriydi va unganlarining ildizi bo`g`zida esa rangsiz dog`lar paydo bo`ladi. Nihollarning ildiz bo`g`zida qizg`ish-qo`ng`ir rangli uzunchoq dog`lar paydo bo`ladi.

Fuzarioz kasalligi Fusarium oxysporum Sehleht avlodiga mansub zamburug`lar qo`zg`atuvchisi hisoblanadi. U ham ildiz chirish kasalligini keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, so`lishni, meva va urug`larning quruq chirish kasalliklariga yo`liqtiradi. Bu kasallik ta`sirida o`simlik juda sekin o`sadi. Bu kasallikka chalingan o`simlikda asosiy ildiz va yuqoridagi poyaning bir qismi qizarganini ko`rishimiz mumkin.

Antraknoz bu kasallikni *Colletotrichum Lindemuthianum* zamburug`i qo`zg`atadi. U asosan moshning barg, poya, gul va dukkaklarini kasallantiradi. Sovuq haroratda kasallangan urug`lar chiriydi yoki ungan o`simlik zaif bo`ladi. Urug`barglarda qizil yoki qo`ng`ir rangli dog`lar paydo bo`ladi. Nam havoda dog`ning markazida bo`rtmalar paydo bo`ladi. Barg tomirlari shikastlanganida jigarrang tusga kiradi va barg tomirlariga yondashgan to`qima sarg`ayadi va qurib qoladi. Dukkaklarida esa mayda sarg`ish qizil dog`lar paydo bo`ladi. Kasallik zo`raygach, dog`lar bir-biri bilan qo`shilib ketadi. Qattiq shikastlanganda parazitning mitseliysi urug` ichiga kirib, uning sirtida ham dukkaklardagidek dog`lar hosil bo`ladi.

Askoxitoz (dog`lanish) kasalligini *Ascochyta phasolorum* zamburug`i qo`g`atadi. Bu kasallikda o`simlikning yer ustki qismi zararlanadi. O`simlik poyasi va barg bandida cho`ziq jigarrang dog`lar paydo bo`ladi. Qo`zg`atuvchining piknosporalari yomg`ir, shamol orqali tarqaladi va sog`lom o`simliklarni zararlaydi. Zamburug` asosan urug` va o`simlik qoldiqlarida qishlaydi.

Un-shudring kasalligini *Ersiphe communis* f. *Phaseoli* zamburug`i qo`zg`atadi. O`simliklarning barcha yer ustki qismlarini zararlaydi va ularning ustida un purkaganga o`xshash oq dog`, so`ngra kulrang tus oluvchi qatlam rivojlanadi. U havo harorati 20-25⁰C va namligi 70-80% bo`lgan sharoitda yaxshi rivojlanadi. Agar ekin kech ekilgan taqdirda ular ko`proq zararlanadi, ammo nobud bo`lmaydi. O`simlikdagi fiziologik jarayonlar buzilishi natijasida hosildorlik 15% ga kamayadi.

Mosh mozaikasi juda xavfli virus kasallik bo`lib, u hosildorlikni 55-70% ga kamayishiga olib keladi. Barglari tomirlari atrofida qoramtir xoshiyalar paydo bo`ladi va barglarining chetlari bukilib qoladi. Keyinchalik barglarida ko`zga ko`rinadigan mozaika rivojlanib, kuchli g`ijimlangan ko`rinish oladi. Ushbu kasallik bilan zararlangan o`simliklarning bo`yi past bo`ladi va rivojlanishdan orqada qoladi.

Moshning zang kasalligini *Uromyces phaseole* Wintur zamburug`i keltirib chiqaradi. Bu kasallik asosan yoz faslining o`rtalarida namoyon bo`lib, o`simlikning barglari va poyasida qo`ng`ir rangdagi yostiqliklar tarzida ko`rishimiz mumkin. Bu kasallikning oraliq xo`jayini sutlama o`simligi hisoblanadi. Moshda uredo va teleytosporalar, sutlamada esa etsidiylar o`sadi. Yozda uredosporalar bir necha marta

hosil bo`lsa, teleytosporalar esa vegetetsiya oxirida o`simlik qoldiqlarida paydo bo`ladi. Keyingi yili teleytosporalardan bazidiyasporalar hosil bo`ladi va sutlamani zararlaydi. Moshni sutlama o`simligida hosil bo`lgan etsidosporalar kasallantiradi. Kasallangan o`simliklarning barglari sarg`ayib ketadi va hosildorlikning kamayishiga olib keladi.

Bakterial kasalliklarni qo`zg`atuvchisi *Xanthomonas phaseoli* zamburug`idir. Kasallangan o`simliklarda poyalari qattiq shikastlanganini hamda poya ustida qizg`ish qoramtir dog`larni ko`rishimiz mumkin. O`simlikning urug`barglar va barglar birikkan qismida qizil xalqa hosil bo`lib, poya shikastlangan bo`g`imidan sinishi yoki o`simliklarni so`lishiga olib keladi. Mayda suv tomchisi singari, och ko`k tusli dog`chalar bargga tushishi bilan biz ushbu kasallikka chalinganini bilib olishimiz mumkin. Dastlab bargning ost tomonida keyin esa ust tomonida ko`rinadi. Ushbu dog`lar tiniqlashib, avval sariq yoki och yashil rangda bo`lib, so`ngra qorayadi.

Xulosa va tavsiyalar. O`simliklarning yuqorida aytib o`tilgan kasalliklarni oldini olishda eng avvalo sog`lom ekinlardan urug`lik olishimiz, ekishdan oldin urug`ni yaxshilab tozalashimiz va samarali dorilar bilan dorilashimiz kerak. Buning uchun quyidagi dorilardan foydalanish maqsadga muvofiq bo`ladi. Ildiz chirish kasalligini oldini olishda saralangan urug`larni – vitavaks 200 FF, 34% s.s.k.-2,5 l/g, himoya 10% s.-4,0 l-g, darmon-4,25-30% kuk, -3,0 kg/t, baraka 60% p, -0,4 kg-t bilan dorilash kerak. Fuzarioz kasalligini oldini olishda saralangan urug`larni vitavaks 200 FF, 34% s.s.k.-2,5 l/g, himoya 10% s.-4,0 l-g, darmon-4, 25-30% kuk, -3,0 kg/t, Antraknoz kasalligi paydo bo`lganda esa ekinga folikur 25% em.k.-0,5 l/ga, folikur BT 22,5% em.k -0,5 l/ga, titul 390 KEK-0,3 l/ga, bamper 25% em.k. va duplet TT 22,5% em.k.-0,5 l/ga fungitsidlarning aytilgan me`yorlarida qo`llash kerak. Mosh askoxitoz kasalligi bilan kasallanmasligi uchun ekishdan oldin urug`larga 200 FF, 34% s.s.k.-2,5 l/g, himoya 10% s.-4,0 l-g, darmon-4,25-30 % kuk, -3,0 kg/t, baraka 60% p, -0,4 kg-t va raksil 2,5% s.e.s.-0,7 l/t bilan dorilash kerak. Kasallik alomatlari sezilganda esa folikur 25% em.k. va duplet TT 22,5% em.k.-0,5 l/ga fungitsidlaridan birini purkash kerak. Un-shudring kasalligiga qarshi kurash uchun almashlab ekishni

joriy etish, kasallik alomatlari sezilganda unga qarshi folikur 25% em.k.-0,5 l/ga, folikur BT 22,5% em.k -0,5 l/ga, titul 390 KEK-0,3 l/ga, bamper 25% em.k. va duplet TT 22,5% em.k.-0,5 l/ga57 fungitsidlarini purkash, hosil yig'ib olingandan so'ng dalani o'simlik qoldiqlaridan tozalash kerak. Mosh bakterial va zamburug' kasalliklarining oldini olish uchun faqat sog'lom urug'larni 200 FF, 34 % s.s.k.-2,5 l/ga va himoya 10 % s.-4,0 l/ga urug'dorilagichlar bilan dorilab ekish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mavlyanova R.F., Sulaymonov B.A., Boltaev B.S., Mansurov X.G., Kenjabaev Sh.M. Mosh yetishtirish texnologiyasi. Tavsiyanoma.- “NAVROZ” nashriyoti, Toshkent-2018.
2. X.M. Atabaeva – Toshkent davlat agrar universiteti “Soya va moyli ekinlar” kafedrasi professori, q.x.f.d., J.B. Xudayqulov, A. R. Anorbaev, X.A. Idrisov. Mosh yetishtirish. “TASVIR” nashriyoti, Toshkent-2021.